

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

INGLIZ FANTASY ADABIYOTIDA AYOL AFSONAVIY OBRAZLARNING TRANSFORMATSIYASI: GALADRIEL VA GERMIONA GREYNJER OBRAZLARI MISOLIDA

Nurmatova Madina Toxir qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, 3-kurs talabasi

Email: nurmatovamadina69@gmail.com

Tel: +99894-218-13-78

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz fantasy adabiyotida ayol afsonaviy obrazlarning transformatsiyasi masalasi Jon Ronald Ruel Tolkien (J. R. R. Tolkien) hamda Joan Ketlin Rovling (J. K. Rowling) asarlaridagi Galadriel va Germiona Greynjer (Hermione Granger) obrazlari misolida tahlil qilinadi. Fantasy adabiyoti mifologik va afsonaviy an'analarni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtirgan holda yangi qahramonlar tizimini yaratdi. Ayniqsa, ayol obrazlarining tasvirlanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Galadriel obrazi qadimgi mifologik donishmand ayol arxetipining davomchisi sifatida namoyon bo'lsa, Germiona obrazi zamonaviy ayol qahramon modelining shakllanishini ifodalaydi. Maqolada ushbu obrazlarning badiiy vazifalari, xarakter xususiyatlari, mifologik asoslari hamda fantasy janridagi o'rni qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari fantasy adabiyotida ayol qahramonlarning passiv obrazdan faol va mustaqil shaxsga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu transformatsiya jamiyatdagi gender qarashlarining o'zgarishi bilan ham uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: fantasy adabiyoti, afsonaviy obraz, Galadriel, Germiona Greynjer, Tolkien, Rovling, transformatsiya, ayol qahramon.

TRANSFORMATION OF FEMALE MYTHICAL IMAGES IN ENGLISH FANTASY LITERATURE: THE CASE OF GALADRIEL AND HERMIONE GRANGER

Madina Nurmatova

3rd-year Student of Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishaqkhan Ibrat
Namangan, Uzbekistan

Annotation. This article examines the transformation of female mythical images in English fantasy literature through the characters of Galadriel and Hermione Granger created by J. R. R. Tolkien and J. K. Rowling. Fantasy literature has combined mythological traditions with modern literary imagination and has created a new system of characters. Significant changes can be observed in the representation of female figures. Galadriel embodies the traditional archetype of the wise and powerful mythical woman, while Hermione Granger represents the emergence of a modern female hero characterized by intelligence, independence and active participation in events. The article analyzes the artistic functions, mythological foundations and literary significance of these characters through a comparative approach. The findings demonstrate that female characters in fantasy literature have evolved from passive symbolic figures into active agents who influence the course of events. Furthermore, this transformation reflects broader cultural and social changes related to the perception of women in contemporary society.

Keywords: fantasy literature, mythical image, Galadriel, Hermione Granger, Tolkien, Rowling, transformation, female character.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n18>

Kirish. XX–XXI asrlar jahon adabiyotida fantasy janri alohida mavqega ega bo'lib, kitobxonlar orasida eng ommabop adabiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ushbu janrning asosiy xususiyatlaridan biri mifologik, afsonaviy va folklor elementlarining zamonaviy badiiy tafakkur

bilan uyg'unlashtirilishidir. Fantasy asarlarida qadimgi mifologik qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar yangi mazmun bilan boyitilib, zamonaviy davr ehtiyojlariga mos ravishda qayta talqin qilinadi. Natijada nafaqat syujet va obrazlar tizimi, balki qahramonlarning ijtimoiy va madaniy vazifalari ham o'zgaradi.

Fantasy adabiyotidagi muhim o'zgarishlardan biri ayol obrazlari evolyutsiyasi bilan bog'liqdir. Qadimgi mifologik tizimlarda ayol qahramonlar ko'pincha go'zallik, ilhom, mehr-shafqat yoki sehr manbai sifatida tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy fantasy asarlarida ular voqealar rivojiga faol ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat fantasy adabiyotining nafaqat estetik, balki ijtimoiy funksiyalarining ham kengayganligini ko'rsatadi.

Jon Ronald Ruel Tolkien yaratgan Galadriel obrazi va Joan Ketlin Rovling yaratgan Germiona obrazi ayol qahramonlar transformatsiyasini tadqiq etish uchun muhim namunalardan hisoblanadi. Ushbu obrazlar turli davrlar va adabiy konsepsiyalar mahsuli bo'lishiga qaramay, fantasy adabiyotidagi ayol qahramonlar taraqqiyotining muhim bosqichlarini aks ettiradi.

Ayol afsonaviy obrazlar evolyutsiyasining nazariy asoslari

Mifologik tafakkur insoniyat madaniyatining eng qadimiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Miflar insonning tabiat, jamiyat va koinot haqidagi tasavvurlarini badiiy shaklda ifodalash vositasi sifatida shakllangan. Jozef Kempbellning fikricha, mifologik qahramonlar insoniyat ongida mavjud bo'lgan umumiy arxetiplarning ifodasidir [2; 48-b.]. Shu sababli turli davr va madaniyatlarda yaratilgan qahramonlar o'rtasida ma'lum o'xshashliklar uchraydi.

Karl Gustav Yung insoniyatning kollektiv ongsizligi nazariyasini ishlab chiqib, unda ayol obrazlarining alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, donishmand ayol, ona, himoyachi va sehrgar kabi arxetiplar ko'plab jahon adabiyotining asarlarida takrorlanadi [4; 81-b.]. Fantasy adabiyotida ham ushbu arxetiplar yangi badiiy shakllarda namoyon bo'ladi.

Fantasy janrining rivojlanishi bilan ayol qahramonlarning funksiyasi ham sezilarli ravishda o'zgardi. Farah Mendlesohn fantasy adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri an'anaviy mifologik obrazlarni zamonaviy madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish ekanligini ta'kidlaydi [6]. Natijada qadimgi afsonalardagi passiv ayol obrazlari o'rnini faol, bilimli va mustaqil qahramonlar egallay boshladi.

Brian Attebery fantasy janrini jamiyatdagi madaniy o'zgarishlarni aks ettiruvchi adabiy maydon sifatida baholaydi [1; 67-b.]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, fantasy asarlaridagi ayol obrazlarining transformatsiyasi ham jamiyatdagi gender munosabatlari va ayol mavqeining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mifologik an'analarda ayol qahramonlar ko'pincha qahramonga yo'l ko'rsatuvchi yoki unga yordam beruvchi kuch sifatida tasvirlangan. Biroq zamonaviy fantasy adabiyotida ayol obrazlari mustaqil harakat qiluvchi va syujet rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi markaziy qahramonlarga aylangan. Ushbu jarayonni Galadriel va Germiona obrazlari misolida yaqqol kuzatish mumkin.

Galadriel obrazida qadimgi mifologik donishmand ayol arxetipining izlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, u oddiy maslahatchi emas, balki muhim siyosiy va ma'naviy kuch egasi sifatida namoyon bo'ladi. Germiona esa an'anaviy ayol qahramon stereotiplaridan butunlay farq qilib, bilim, mantiq va qat'iyat timsoliga aylanadi. Shu jihatdan mazkur ikki obraz fantasy adabiyotida ayol qahramonlar evolyutsiyasining turli bosqichlarini ifodalaydi.

Galadriel obrazining mifologik xususiyatlari

Jon Ronald Ruel Tolkiening *The Lord of the Rings* (Uzuklar hukmdori) hamda *The Silmarillion* (*Silmarillion*) asarlarida Galadriel eng murakkab va ko'p qirrali ayol qahramonlardan biri sifatida tasvirlanadi. U elf xalqi vakili bo'lib, nafaqat go'zallik taraflama, balki donoligi, uzoqni ko'ra bilishi va ma'naviy qudrati bilan ham ajralib turadi. Tolkien yaratgan mifologik olamda Galadriel qadimgi afsonalardagi ilohiy ayol timsolining zamonaviy talqini sifatida namoyon bo'ladi.

Galadriel obrazining shakllanishida Yevropa mifologiyasi va folkloridagi ayol qahramonlar an'anasi muhim rol o'ynagan. Tadqiqotchilar uning obrazida kelt mifologiyasidagi ma'buda va sehrGAR ayollar, german-skandinav afsonalaridagi donishmand qahramonlar hamda xristian an'analardagi ma'naviy poklik timsollari mujassamlashganligini ta'kidlaydilar [3; 143-b.]. Shu sababli Galadriel faqat bitta mifologik modelga emas, balki turli madaniy qatlamlarning sintezi natijasida yaratilgan murakkab obraz hisoblanadi.

Asarda Galadrielning eng muhim xususiyatlaridan biri uning donoligidir. U voqealarning yashirin tomonlarini anglay oladi, kelajakdagi xavflarni sezadi va qahramonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Bu jihat uni mifologiyadagi "donishmand ayol" arxetipiga yaqinlashtiradi. Yung ta'kidlaganidek, donishmand ayol arxetipi insoniyatning kollektiv ongsizligida mavjud bo'lib, u bilim, tajriba va ma'naviy yetuklikni ifodalaydi [4; 89-b.]. Galadriel aynan shu arxetipning fantasy adabiyotidagi yorqin namunasi.

Biroq Galadriel faqat maslahatchi vazifasini bajaruvchi obraz emas. U Lothlorien hududining hukmdori sifatida siyosiy kuchga ham ega. Uning qarorlari elf xalqi taqdiriga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat an'anaviy mifologik ayol obrazlaridan farqli ravishda Galadrielning faol pozitsiyasini ko'rsatadi. U voqealarni tashqaridan kuzatuvchi emas, balki tarixiy jarayonlarning muhim ishtirokchisidir.

Galadriel obrazining yana bir muhim jihati uning hokimiyat va vasvasa bilan bog'liq sinovdan o'tishidir. Uzuk unga taklif qilingan paytda u cheksiz kuch egasiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq Galadriel ushbu vasvasadan voz kechadi va ma'naviy poklikni tanlaydi. Bu epizod uning axloqiy yetukligini namoyish etadi hamda qahramonning ichki rivojlanishini ko'rsatadi [9; 356-b.].

Tolkien Galadriel obrazini yaratishda ayol qahramonning faqat tashqi go'zalligiga emas, balki uning intellektual va ma'naviy sifatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Shu sababli Galadriel fantasy adabiyotidagi eng ta'sirchan ayol obrazlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U qadimgi mifologik an'analarni saqlab qolgan holda zamonaviy ayol qahramon konsepsiyasiga yaqinlashadi.

Germiona obrazining zamonaviy talqini

Joan Ketlin Rovlingning *Harry Potter and the Philosopher's Stone* (Garri Potter va Hikmatlar toshi) asaridan boshlab Germiona fantasy adabiyotining eng mashhur ayol qahramonlaridan biriga aylandi. Agar Galadriel qadimgi mifologik ayol arxetipining davomchisi bo'lsa, Germiona zamonaviy jamiyat qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi tipdagi qahramondir.

Germiona dastlab kitobsevar va bilimga chanqoq o'quvchi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq voqealar rivoji davomida uning xarakteri tobora murakkablashib boradi. U nafaqat yuqori bilim darajasiga, balki jasorat, qat'iyat va mas'uliyat kabi fazilatlariga ham ega ekanligini

namoyish etadi. Aynan shu xususiyatlar uni fantasy adabiyotidagi an'anaviy ayol qahramonlardan ajratib turadi.

Rovling yaratgan obrazda bilim asosiy kuch manbai sifatida talqin qilinadi. Germiona ko'plab muammolarni jismoniy kuch bilan emas, balki mantiqiy fikrlash va ilmiy yondashuv orqali hal qiladi. Germiona dastlabki romanlarda o'zining bilimdonligi va o'qishga bo'lgan jiddiy munosabati tufayli tengdoshlari tomonidan har doim ham to'g'ri baholanmaydi. Biroq syujet rivojlanishi davomida uning bilim va mantiqiy fikrlash qobiliyati ko'plab muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada Garri va Ron ham uning intellektual salohiyatini tan ola boshlaydilar. Keyingi voqealarda Germiona sehrgarlar olamining eng iste'dodli yosh jodugarlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [5; 73-b.]. Bu jihat zamonaviy jamiyatda ta'lim va intellektning ahamiyati ortib borayotganligini aks ettiradi. Fantasy adabiyotida ilgari erkak qahramonlarga xos deb hisoblangan sifatlar Germiona obrazida ayol qahramon orqali ifodalanadi.

Germiona obrazining yana bir muhim jihati uning mustaqilligidir. U ko'plab vaziyatlarda o'z qarorlarini mustaqil ravishda qabul qiladi va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bu xususiyat ayol qahramonlarning passiv yordamchi rolidan faol ishtirokchi maqomiga o'tganligini ko'rsatadi [5; 95-b.].

Asar davomida Germiona nafaqat Garri Potter va Ron Uizlining do'sti, balki ko'pincha ularning muvaffaqiyatiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ko'plab murakkab vaziyatlarda aynan uning bilim va mantiqi qahramonlarni xavfdan qutqaradi. Shu tariqa Germiona syujet rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi markaziy obrazga aylanadi.

Germiona obrazida gender stereotiplariga qarshi kurash elementlari ham mavjud. U qiz bolalarning faqat hissiyotga beriluvchan yoki himoyaga muhtoj shaxs sifatida tasvirlanishi haqidagi an'anaviy qarashlarni rad etadi. Aksincha, u bilimli, faol, qat'iyatli va liderlik qobiliyatiga ega qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli Germiona zamonaviy fantasy adabiyotida ayol obrazlari transformatsiyasining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Galadriel va Germiona obrazlarining qiyosiy tahlili

Galadriel va Germiona turli davrlarda yaratilgan bo'lishiga qaramay, ularni birlashtiruvchi umumiy jihatlar mavjud. Har ikkala qahramon ham aql-zakovat, ma'naviy kuch va mas'uliyat kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ular erkak qahramonlarning oddiy yordamchisi emas, balki voqealar rivojiga faol ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil shaxslardir.

Biroq ular o'rtasida muhim farqlar ham mavjud. Galadriel ko'proq mifologik va ramziy xususiyatlarga ega bo'lsa, Germiona real inson xarakteriga yaqinroq tasvirlangan. Galadriel donishmandlik va ma'naviy qudrat timsoli sifatida namoyon bo'ladi, Germiona esa bilim va mantiq orqali muvaffaqiyatga erishuvchi zamonaviy qahramon modelini ifodalaydi.

Galadriel obrazi fantasy adabiyotida qadimgi mifologik an'analarning davomiyligini ko'rsatsa, Germiona ushbu an'analarning zamonaviy talqinini namoyon etadi. Shu jihatdan qaraganda, mazkur ikki qahramon fantasy adabiyotidagi ayol obrazlar evolyutsiyasining ketma-ket bosqichlarini aks ettiradi. Birinchisi afsonaviy donishmand ayol modelini, ikkinchisi esa zamonaviy mustaqil ayol modelini ifodalaydi.

Natijada fantasy adabiyotida ayol qahramonlar tasvirining sezilarli darajada murakkablashgani va boyigani kuzatiladi. Bu jarayon nafaqat adabiy an'analarning rivojlanishi, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan ham bevosita bog'liqdir.

Xulosa. Fantasy adabiyoti mifologik va afsonaviy an'analarni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtirgan holda yangi qahramonlar tizimini yaratdi. Ushbu jarayonda ayol obrazlarining talqini ham sezilarli darajada o'zgardi. Tadqiqot davomida Jon Ronald Ruel Tolkien yaratgan Galadriel hamda Joan Ketlin Rowling yaratgan Germiona obrazlari misolida fantasy adabiyotidagi ayol qahramonlar transformatsiyasi tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Galadriel obrazi qadimgi mifologik an'analarning davomchisi sifatida donishmandlik, ma'naviy qudrat va axloqiy yetuklik timsolini ifodalaydi. U fantasy adabiyotida ilohiy va afsonaviy ayol qahramon modelining yorqin namunasi hisoblanadi. Shu bilan birga, Galadriel nafaqat ramziy obraz, balki siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi faol shaxs sifatida ham tasvirlangan.

Germiona esa zamonaviy fantasy adabiyotidagi yangi tipdagi ayol qahramon modelini namoyon etadi. Uning obrazida bilim, mantiqiy tafakkur, mustaqillik va liderlik fazilatlarini asosiy o'rin egallaydi. Germiona an'anaviy gender stereotiplarini rad etgan holda ayol qahramonning voqealar markazida turishi va syujet rivojiga faol ta'sir ko'rsatishi mumkinligini isbotlaydi.

Qiyosiy tahlil natijalari fantasy adabiyotida ayol obrazlarining passiv va ramziy qahramonlardan faol, mustaqil hamda murakkab xarakterli obrazlarga aylanganligini ko'rsatdi. Galadriel va Germiona obrazlari o'rtasidagi farqlar fantasy janrining turli rivojlanish bosqichlarini aks ettirsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat ayol qahramonning kuch, bilim va ma'naviy yetuklik timsoli sifatida talqin qilinishidir.

Demak, ingliz fantasy adabiyotida ayol afsonaviy obrazlarning transformatsiyasi nafaqat janrning badiiy imkoniyatlari kengayganligini, balki jamiyatning ayol mavqeiga bo'lgan qarashlari ham o'zgarganligini ko'rsatadi. Shu sababli Galadriel va Germiona obrazlari fantasy adabiyoti tarixida ayol qahramonlar evolyutsiyasining muhim bosqichlarini ifodalovchi badiiy fenomen sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Attebery, B. *Strategies of Fantasy*. – Bloomington: Indiana University Press, 1992. – 224 p.
2. Campbell, J. *The Hero with a Thousand Faces*. – Princeton: Princeton University Press, 2004.
3. James, E., Mendlesohn, F. *The Cambridge Companion to Fantasy Literature*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 268 p.
4. Jung, C. G. *The Archetypes and the Collective Unconscious*. – Princeton: Princeton University Press, 1981. – 470 p.
5. Kopke, D. *Women as Heroes in Selected Fantasy Novels*. Master's Thesis. University of Fort Hare, 2014. – 150 p.
6. Mendlesohn, F. *Rhetorics of Fantasy*. – Middletown: Wesleyan University Press, 2008. – 336 p.
7. Rowling, J. K. *Harry Potter and the Deathly Hallows*. – London: Bloomsbury Publishing, 2014. – 624 p.
8. Rowling, J. K. *Harry Potter and the Philosopher's Stone*. – London: Bloomsbury Publishing, 2014. – 332 p.
9. Tolkien, J. R. R. *The Lord of the Rings*. – London: HarperCollins Publishers, 2020. – 1216 p.
10. Tolkien, J. R. R. *The Silmarillion*. – London: HarperCollins Publishers, 2001. – 480 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.